TIBBIY TURIZM KONSEPSIYASINING NAZARIY ASOSLARI: MINTAQAVIY YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI

Haydarova Dilora Ixtiyorovna

Buxoro davlat universiteti
E-mail:dilora.kh.95@gmail.com

K E Y W O R D S

tibbiy turizm, sog'lomlashtirish turizmi, xalqaro tibbiy xizmatlar, tibbiy turizm klasterlari, narx raqobatbardoshligi, wellness turizm, tibbiy xizmatlar eksporti

A B S T R A C T

Ushbu maqolada tibbiy turizmning nazariy asoslari, unga AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari olimlari tomonidan berilgan ta'riflar va yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontentanaliz metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida AQSh olimlarining iqtisodiy yondashuvi, Yevropa tadqiqotchilarining huquqiy-siyosiy yondashuvi, Osiyo mamlakatlarining esa madaniy-texnologik-turistik yondashuvi aniqlangan. Tibbiy xizmatlar narxlarining mamlakatlar bo'yicha qiyosiy tahlili o'tkazilgan va AQShda tibbiy xizmatlar narxi boshqa mamlakatlarga nisbatan 8-10 baravar yuqori ekanligi isbotlangan. O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish istiqbollari va "Avitsenna" brendi ostida milliy imijni targ'ib etish strategiyasi ko'rsatib o'tilgan.

KIRISH

So'nggi yillarda tibbiy turizm va sog'lomlashtirish xizmatlari bozor hajmi sezilarli darajada o'sishga erishmoqda. Bu esa iqtisodiy sharoitlar, ya'ni mamlakat byudjetiga chet el valyutasini jalb qilish, xususiy kasalxona va sanatoriylar soni oshishi va xizmat ko'rsatish sohalaridagi bandlikni oshishi singari omillar bilan izohlanadi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijliklar soni qariyb 5,3 million nafarni tashkil etgan. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ularning 48,5 ming nafari davolanish maqsadida kelgan bo'lib, bu ko'rsatkich mamlakatda tibbiy turizm sohasining izchil o'sib borayotganidan dalolat beradi [1].

Mamlakatimizda tibbiy turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-Z35-sonli qarorida tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish hamda zamonaviy sanatoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan [2]. Shuningdek, 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4055-sonli qarorda sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bilan bir qatorda tibbiy turizmni rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish vazifasi ham nazarda tutilgan [3].

"Avitsenna" brendi ostida milliy imijni targ'ib etish, xalqaro akkreditatsiya xarajatlarini davlat tomonidan qisman qoplash, xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy etish hamda xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash asosiy masala qilib belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, diagnostika xizmatlarini tashkil etish, tibbiy turizm klasterlarini rivojlantirish va xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmani kengaytirish kabi chora-tadbirlar muhim masala qilib belgilab qo'yilgan.

Tibbiy turizm sog'liqni saqlash va sayohat sohasi chorrahasida shakllangan murakkab hodisa bo'lib, uning mazmuni turli manbalarda turlicha izohlanadi. Ba'zi tadqiqotlarda bu atama chegaradan tashqari tibbiy xizmatlardan foydalanishni anglatgan bo'lsa, boshqa yondashuvlarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy o'lchovlarni ham o'z ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha sifatida talqin etiladi.

Dastlab "tibbiy turizm" faqat kurort va balneologik turizm bilan bog'liq bo'lgan,

(cc) BY

keyinchalik esa u sog'liqni tiklash maqsadida amalga oshiriladigan safarlarning turli shakllarini qamrab oluvchi jarayonga aylangan. Bu jarayon global sog'liqni saqlash tizimidagi transformatsiyalar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar va zamonaviy texnologik rivojlanishlar ta'sirida yanada murakkablashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiy turizm haqidagi dastlabki tushunchalar 2000-yillarning boshlarida shakllana boshlagan bo'lib, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar hozirgi kungacha ushbu sohaning nazariy asoslarini belgilab bermoqda. M. Bookman tibbiy turizmga doir ilk keng qamrovli iqtisodiy tahlillardan birini taqdim etib, uni oddiygina "sog'liqni yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan xalqaro sayohat" sifatida izohlashgan [4]. Berilgan ta'rif juda oddiy bo'lsada, tibbiy turizmni iqtisodiy rivojlanish jihatidan uni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xizmatlar savdosining istiqbolli shakli sifatida baholashgan.

Shuningdek mualliflar tibbiy turizmni iqtisodiy modellar orqali o'rganib, bozor dinamikasi, xarajatlar tuzilishi hamda qabul qiluvchi mamlakatlar uchun rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilishgan. John Connell tibbiy turizmni bevosita tibbiy aralashuv bilan chambarchas bog'langan va natijalari sezilarli hamda uzoq muddatli bo'lishi kutiladigan xalqaro sayohat deb ta'rif bergan [5]. Ushbu yondashuv tibbiy turizmni sog'liq turizmning kengroq shakllaridan farqlab, aynan invaziv tibbiy muolajalar va jiddiy natijalarga urg'u beradi. Bunda wellness faoliyati va yengil muolajalar bu doiradan chiqarib tashlanadi.

Connellning turizm tadqiqotlari nuqtayi nazaridan qarashi geografik tahlil va turizm industriyasi konsepsiyalarini birlashtirib, tibbiyot va turizm sektorlarining o'zaro bog'liqligini yoritadi. Olimlarning ta'riflarini tahlil qilganda, tibbiy turizmni tushuntirishda ikkita asosiy yondashuv yaqqol ko'zga tashlanadi: iqtisodiy va turizmga oid yondashuv.

Iqtisodiy yondashuvga ko'ra Bookman tibbiy turizmni xizmatlar savdosining bir ko'rinishi sifatida baholab, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun valyuta oqimi, investitsiya jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil deb ko'radi. Bu qarash tibbiy turizmning makroiqtisodiy natijalariga ko'proq urg'u berib, uning ijtimoiy va madaniy jihatlarini cheklangan tarzda yoritadi.

Turizmga oid yondashuvga ko'ra Connell tibbiy turizmni ko'proq turizm industriyasi kontekstida izohlab, tibbiy turizm faqat sog'liqni yaxshilash uchun sayohat emas, balki geografik makon, turistik infratuzilma, bemor va turist sifatidagi iste'molchi xatti-harakatlarini ham qamrab olish orqali chegaralarni aniqroq belgilab beradi.

Lunt va Carrera bemorning faoliyatini asosiy mezon sifatida ko'rsatgan va tibbiy turistlarni "o'z xohishi bilan harakat qiluvchi bemorlar" sifatida ta'riflagan [6]. Bu bilan ular ixtiyoriy tibbiy turizmni shoshilinch yordam yoki davlatlararo sog'liqni saqlash bo'yicha rasmiy kelishuvlardan farqlagan.

Johnston, Crooks, Snyder va Kingsbury esa ta'rifga aniqlik kiritish maqsadida rasmiy kelishuvlarni istisno etib, tibbiy turizmni quyidagicha izohlagan: "O'z mamlakatidan tashqariga chiqib, belgilangan chegaralararo sog'liqni saqlash kelishuvlaridan tashqari, tibbiy yordam olish maqsadida safar qiluvchi bemorlar" [7]. Bu ta'rif tibbiy turizmning aksariyat hollarda norasmiy xarakterga egaligini tan olgan va unda jarrohlik muolajalarning ustun o'rin tutishini qayd etgan.

Lunt va Carreraning yondashuvi tibbiy turizmni aniqlashda intensional xususiyat, ya'ni bemorning ongli ravishda davolanish uchun sayohat qilishi mezonini markazga qo'yadi. Mazkur yondashuv, bir tomondan, turizm terminologiyasida uchraydigan noaniqliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi va tibbiy turizmni sog'liqni saqlash siyosati kontekstida nazariy jihatdan asoslash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy turizmni davlat sog'liqni saqlash strategiyasi, tibbiy xizmatlar sifati hamda xalqaro standartlar bilan uyg'unlikda o'rganish uchun metodologik asos yaratadi.

Shu bilan birga, mazkur yondashuvning zaif tomoni shundaki, u tibbiy turizmning turizm sohasi uchun xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy funksiyalarini ikkinchi darajaga surib qo'yadi. Vaholanki, tibbiy turizmni kompleks hodisa sifatida talqin etishda nafaqat davolash va

(cc) BY

sog'lomlashtirish jarayoni, balki mehmon mamlakatning madaniy merosi, urf-odatlari va turistik tajribasi bilan chambarchas bog'liqligi ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Tibbiy turizm ta'riflari bo'yicha asosiy yondashuvlar[1]

Muallif(lar)	Ta'rif / Yondashuv	Metodologik yo'nalish	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Bookman & Bookman	**Tibbiy turizm** – sog'liqni yaxshilash maqsadida xalqaro sayohat; xizmatlar savdosi sifatida ko'riladi	**Iqtisodiy model** – xizmatlar savdosi, bozor dinamikasi, xarajatlar tuzilishi	Valyuta oqimi, ish o'rinlari va investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi	Ijtimoiy-madaniy va insoniy omillarni ikkinchi darajaga suradi
John Connell (2006)	**Tibbiy turizm** – invaziv aralashuv va uzoq muddatli natijalar bilan bog'liq xalqaro sayohat	**Turizm yondashuvi** – geografik tahlil, turistik infratuzilma	Tibbiy turizmni wellnessdan aniq ajratadi; kengroq talqin beradi	Global iqtisodiy natijalarni cheklangan tarzda qamrab oladi
Lunt & Carrera	Tibbiy turist – "o'z xohishi bilan sayohat qiluvchi bemor"	Bemor xulq-atvoriga asoslangan yondashuv intensional xususiyat	Sog'liq siyosati bilan bog'lash imkonini beradi; terminologik chalkashliklarni kamaytiradi	Turizmning ijtimoiy-madaniy jihatlarini ikkinchi planga suradi
Johnston va boshqalar	Kelishuvlarsiz, davolanish uchun xorijga safar (ko'proq jarrohlik)	Torroq amaliy yondashuv – jarrohlik amaliyotlari va norasmiy xarakterga urg'u	Ilmiy aniqlik, statistik hisob-kitoblar va empirik tadqiqotlar uchun qulay	Kengroq ijtimoiy va turistik funksiyalarni qamrab olmaydi
McCartney & Wang	Tibbiy turizm – sog'liq va turizmni birlashtiruvchi global iqtisodiy faoliyat	Iqtisodiy-yondashuv – barqarorlik, javobgarlik, sektorlararo hamkorlik	Global va kompleks ko'rinishda talqin qiladi; barqarorlik konsepsiyasini kiritadi	Juda umumiy; bemor tajribasi va mikro darajadagi jihatlar kam yoritilgan
Androutsou & Metaxas	EU kontekstida: erkin harakatlanish va xarajatlarni qoplash tizimlari	Huquqiy-siyosiy yondashuv – EU qonunchiligi asosida.	Yevropadagi maxsus mexanizmlarni yoritadi; siyosiy-huquqiy asoslarni ko'rsatadi.	Faqat Yevropa konteksti bilan cheklanadi; global qo'llanishi tor.
Mathijsen & Dziedzic	Diasporik tibbiy turizm – vatanga qaytib davolanish	Ijtimoiy-migratsion yondashuv – diaspora, ishonch va madaniy aloqalarga asoslanadi	Migratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'laydi; madaniy va emotsional omillarni ochib beradi	Tor ijtimoiy guruh (diaspora) misolida cheklangan

[1] *Manba: muallif tomonidan tuzilgan*

(cc) BY

Amerikalik olimlarning ta'riflari muntazam ravishda tibbiy turizmning asosiy omili sifatida xarajatlarni ta'kidlaydi. Bu yondashuv Amerika Qo'shma Shtatlarning o'ziga xos xususiyatlari sog'liqni saqlash xizmatlarining nihoyatda yuqori narxlari hamda sug'urta asosidagi tizim bilan izohlanadi. AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi tibbiy turizmni "tibbiy yordam olish maqsadida boshqa mamlakatga sayohat qilish" sifatida belgilab, "odamlar xalqaro miqyosda arzonroq tibbiy muolajalarni izlash yoki o'z mamlakatida mavjud bo'lmagan muolajalarni olish uchun sayohat qilishi mumkin"ligini qayd etadi [8].

Dalen va Alpert tibbiy turizmni AQSh sog'liqni saqlash iqtisodiyoti bilan bog'lab ko'rsatadilar. Chunki amerikaliklar xorijiy davlatlarda ta'til vaqtida arzonroq jarrohlik, stomatologiya yoki kosmetik muolajalarni izlay boshlaganlar [9]. Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi tibbiy turizmga ehtiyojlarning qondirilmaganligini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. "Tibbiy turistlar o'zlari uchun qondirilmagan tibbiy ehtiyojlarni hal etish maqsadida safarga chiqadilar; bunga xarajatlar, xizmatlardan tezkor foydalanish, yuqori sifatli davolanish yoki ustun deb hisoblangan xizmatlar, shuningdek, yashash mamlakatida mavjud bo'lmagan muolajalarga kirish imkoniyati sabab bo'lishi mumkin" deb ta'rif berishgan [10].

Dingel, Gottlieb, Lozinski va Mourot olib borgan so'nggi iqtisodiy tadqiqotlarda tibbiy turizm sog'liqni saqlash xizmatlari bozoridagi "mintaqalararo savdo" sifatida talqin qilinadi [11]. Tadqiqotchilar AQSh hukumatiga sog'liqni saqlashga kirish imkoniyatini kengaytirish, xususan, qishloq hududlarida xizmatlar taqchilligini kamaytirish maqsadida tibbiy turizmni davlat tomonidan subsidiyalash siyosatini joriy etishni taklif qiladilar.

METODOLOGIYA

Maqolada qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontentanaliz metodlaridan foydalanildi. Tibbiy turizmga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan yetakchi olimlarning tibbiy turizmga oid ta'riflari tanlandi.

Ta'riflarni tahlil qilishda quyidagi mezonlar qo'llanildi: metodologik yo'nalish (iqtisodiy, turizmga oid, huquqiy-siyosiy, madaniy yondashuvlar), ta'rifning kuchli tomonlari va zaif tomonlari. Shuningdek, har bir ta'rif uning ilmiy-amaliy qo'llanilishi nuqtayi nazaridan baholandi.

Narxlarni qiyoslash uchun GoodRx, Bookimed, World Population Review, Dental Mexico, Fertility World va boshqa ishonchli manbalardan olingan 2024-2025 yillariga oid ma'lumotlardan foydalanildi. Tahlil qilingan muolajalar qatoriga son bo'g'im protezi, koronar arteriya bypass (CABG), dental implant va IVF (in vitro fertilizatsiya) kiradi.

Mintaqaviy tahlil uchun AQSh, Yevropa (Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Belgiya, Niderlandiya) va Osiyo (Xitoy, Hindiston, Turkiya, BAA, Janubiy Koreya, Singapur) mamlakatlaridan olingan ilmiy manbalar o'rganildi. Jami 15 dan ortiq yetakchi olim va tadqiqotchi guruhlarining ishlari tahlil qilindi.

NATIJALAR

2-jadval

Tibbiy turistik xizmatlar narxlarining mamlakatlar bo'yicha qiyosiy tahlili (AQSh dollari)[2]

Muolaja	AQSh	Hindiston	Tailand	Turkiya	Meksika
Son bo'g'im protezi	$18,000–53,000	$2,500–8,000	$4,500–15,000	$6,000–18,000	$7,000–20,000
Koronar bypass (CABG)	$30,000–200,000+	$4,500–13,000	$8,000–20,000	$10,000–25,000	$9,000–25,000
Dental implant (1 tish)	$1,500–6,000	$300–1,200	$400–1,200	$400–1,000	$500–1,500

[2] Manba: GoodRx, Bookimed, World Population Review, Dental Mexico, Fertility World ma'lumotlari asosida tuzilgan

(cc) BY

IVF (bir sikl)	$12,000–25,000+	$3,000–6,000	$4,500–6,000	$3,500–7,000	$6,000–10,000

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, AQShda tibbiy xizmatlarning narxi nihoyatda yuqori bo‘lib, masalan, yurak bypass operatsiyasi o‘rtacha 120 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Xuddi shu muolaja Hindiston va Tailandda 10-15 ming dollar atrofida bajarilishi mumkin, ya’ni narx jihatidan 8-10 baravar arzon. Meksika va Turkiya bozorida ham tibbiy xizmatlar narxi AQSh bilan solishtirganda 50-70 foizgacha past.

Osiyo mamlakatlari olimlari tibbiy turizmning madaniy integratsiya, an’anaviy tibbiyot tizimlari hamda iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Xitoy olimlari sog’liq turizmini ekotsentrik qarashlar asosida talqin qiladilar. Luo va boshqalar wellness turizmini “turistning shaxsiy mikroekotizimi bilan boshqa tabiiy va ijtimoiy ekotizimlar o‘rtasidagi murakkab moddiy, energiya va axborot almashinuvi jarayonida yuqori darajadagi dinamik muvozanatga erishish” sifatida ta’riflaydi [13]. Bu ta’rif Xitoyning an’anaviy muvozanat va uyg’unlik konsepsiyalarini aks ettirib, g’arbning biomedikal modellaridan tubdan farq qiluvchi falsafiy yondashuvlarni namoyon etadi.

Hindistonlik olimlar an’anaviy va zamonaviy tibbiyot tizimlari integratsiyasiga urg’u beradilar. Ularning ta’riflarida muntazam ravishda Ayurveda, yoga, naturopatiya va boshqa an’anaviy davolash usullarini zamonaviy tibbiy xizmatlar bilan uyg’unlashtirish alohida qayd etiladi. Bu yondashuv Hindiston tibbiy turizmini bir vaqtning o‘zida ham ilg’or jarrohlik amaliyotlarini, ham qadimiy davolash an’analarini taklif etuvchi kompleks hodisa sifatida ko‘rsatadi va turli xil bemorlarning ehtiyoj hamda madaniy xohishlariga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Hind olimlari Sultana, Haque, Momen va Yasminlarning ta’rifiga ko‘ra, tibbiy turizm shaxsning o‘z mamlakatidan tashqariga chiqib, davolanish jarayonini turistik faoliyatlar bilan uyg’unlashtirishidir [14]. Ushbu jarayonning asosiy mezonlari sifatida xarajatlarning qulayligi, tibbiy xizmatlarning sifati hamda manzilning turistik imiji ko‘rsatiladi.

Yaqin Sharq olimlari, xususan BAA tadqiqotchilari, tibbiy turizmni mintaqaviy sog’liqni saqlash markazini rivojlantirish doirasida talqin qiladilar. Ularning ta’riflarida mintaqaning Yevropa, Osiyo va Afrikadan keluvchi bemorlar uchun ko‘prik vazifasini bajarishi alohida ta’kidlanadi. Ahmed, Al Amiri va Khan olimlarining fikricha, tibbiy turizm — bu shaxslarning o‘z mamlakatidan tashqariga chiqib, kasallik, xastalik yoki sog'liq bilan bog'liq boshqa muammolarni davolash, jarrohlik amaliyotini o‘tkazish yoki davolanish maqsadida boshqa hududga sayohat qilish jarayonidir [15]. Olimlar bu hodisani xizmatlar sohasidagi xalqaro savdo shakli sifatida ham talqin qiladilar.

Turkiyalik tadqiqotchilar ham mamlakatning geografik va madaniy o‘ziga xosligini qayd etib, Turkiyani turli tibbiy an’analar va bemor oqimlari kesishadigan nuqta sifatida ta’riflaydilar. S. Kurtulmush va A. O’zturklarning fikricha, tibbiy turizm - bu shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqib, sog’liqni saqlash xizmatlarini olish bilan birga, ba’zan dam olish yoki turistik faoliyatlarni ham qo‘shib boradigan jarayondir [16]. Bu ta’rifda tibbiy turizmning asosiy omillari sifatida davolanish sifati, infratuzilma imkoniyatlari va bemorlarning ehtiyojlarini (narx, tezkorlik, sifat) qondirish ko‘rsatiladi.

Kim, Arcodia va Insin esa texnologik taraqqiyot va tibbiy ekspertizaga urg’u berib, tibbiy turizmni “turli tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida xalqaro chegaralardan ongli ravishda o‘tish hodisasi” sifatida izohlaydilar [17]. Ularning ta’riflarida Janubiy Koreyaning yuqori darajadagi tibbiy texnologiyalar, kosmetik jarrohlik sohasidagi yetakchilik va ilg’or tibbiy xizmatlarni xalqaro bemorlarga madaniy sezgirlikni hisobga olgan holda integratsiya qilishdagi muvaffaqiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbek olimlaridan U. Rustamov va T. Jumabayev tomonidan O‘zbekistonning tibbiy turistik imkoniyatlari geografik jihatdan o‘rganilgan. Ular tibbiy turizmni “davolanish va

(cc) BY

dam olishni birlashtirgan sayohat" sifatida ta'riflaydilar [18].

3-jadval

AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari olimlarining tibbiy turizmga oid yondashuvlari tahlili[3]

Mintaqa	Asosiy drayver / omil	Ta'rifga urg'u	Yondashuv turi	Xususiyatlari
AQSh	Narxlar farqi, arzon muolajalarni boshqa mamlakatlardan izlash	Tibbiy xizmatning iqtisodiy jihati	Iqtisodiy yondashuv	Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun valyuta oqimi, ish o'rinlari; bemor ehtiyojlari va global iqtisodiy ta'sirga urg'u
Yevropa	Erkin harakatlanish, xarajatlarni qoplash mexanizmlari	EU qonunchiligi, siyosiy-huquqiy aspekt	Huquqiy-siyosiy yondashuv	Tibbiy turizmni EU kontekstida tartibga soladi; sektorlararo hamkorlik va barqarorlikni ta'kidlaydi
Osiyo	Madaniy kompetensiya, an'anaviy + zamonaviy tibbiyot integratsiyasi, ilg'or texnologiyalar	Davolanish + turizm uyg'unligi, bemor tajribasi	Madaniy-texnologik-turistik yondashuv	Kompleks va integratsiyalashgan yondashuv; sog'liqni saqlash, turizm va madaniyatni birlashtiradi

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy turizm AQSh, Yevropa va Osiyo kontekstida turlicha talqin qilinadi. AQShda asosiy drayver narxlar bo'lsa, tibbiy turizm arzonroq va sifatliroq xizmat izlash sifatida iqtisodiy yondashuv bilan tushuntiriladi. AQSh olimlari muntazam ravishda tibbiy turizmning asosiy drayveri sifatida narx farqini ko'rsatadi. Buning sababi esa AQShda sog'liqni saqlash xizmatlarining nihoyatda qimmatligi va sug'urta tizimining murakkabligidadir. Shuning uchun amerikalik bemorlar asosan arzonroq muolajalar, ya'ni jarrohlik, stomatologiya, kosmetik xizmatlar uchun xorijga chiqishadi.

Yevropada esa erkin harakatlanish va xarajatlarni qoplash mexanizmlari markazda bo'lib, huquqiy-siyosiy yondashuv orqali Yevropa Ittifoqi qonunchiligi kontekstida talqin qilinadi. McCartney va Wang tibbiy turizmni barqaror va ko'p tarmoqli iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qiladi. Androutsou va Metaxas esa tibbiy turizmni Yevropa Ittifoqi qonunchiligi, erkin harakatlanish va xarajatlarni qoplash tizimlari doirasida talqin qiladi. Mathijsen va Dziedzic diasporalar misolida tibbiy turizmni ishonch, tanishlik va madaniy aloqalar bilan bog'lab ko'rsatgan.

Osiyoda esa madaniy kompetensiya, an'anaviy va zamonaviy tibbiyot integratsiyasi, ilg'or texnologiyalar va turizm uyg'unligi asosiy omil bo'lib, kompleks va integratsiyalashgan yondashuvni tashkil etadi. Osiyo olimlarining yondashuvlari tibbiy turizmni sog'liqni saqlash, madaniyat, texnologiya va turizm elementlarini birlashtiruvchi ko'p qirrali va integratsiyalashgan hodisa sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Fikrimizcha, ikkala yondashuvning kuchli va zaif tomonlari mavjud. Faqat iqtisodiy model asosida ta'riflash tibbiy turizmning insoniy omillarini yetarlicha hisobga olmaydi, faqat turizmga oid yondashuv esa uning global iqtisodiy ta'sirini to'liq yoritmaydi. Shu sababli, tibbiy turizmni kompleks hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Ya'ni, u nafaqat chegaradan tashqari tibbiy xizmatlardan foydalanishni, balki

[3] *Manba: muallif tomonidan tuzilgan*

(cc) BY

iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-madaniy almashinuv, texnologik yangiliklar va davlat siyosati kabi omillarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston uchun bu tahlilning amaliy ahamiyati shundaki, mamlakatimiz tibbiy turizmni rivojlantirishda Osiyo yondashuviga yaqinroq model qo‘llashi maqsadga muvofiq. Ya’ni, an’anaviy tibbiyot (Sharq tabobati) va zamonaviy tibbiy xizmatlar integratsiyasi, “Avitsenna” brendi ostida milliy imijni targ’ib etish va mintaqaviy klasterlar shakllantirish O‘zbekiston uchun strategik yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Demak, Lunt va Carrera ta’rifi tibbiy turizmni kengroq ijtimoiy hodisa sifatida talqin etib, uni sog’liqni saqlash siyosati bilan bog’liq masalalarda qo‘llash uchun metodologik asos yaratadi. Johnston va boshqalarning ta’rifi esa tadqiqotlarda ilmiy aniqlik va statistik hisob-kitoblar uchun qulayroq, torroq mezonlarni belgilaydi. Shu bois, izlanish maqsadidan kelib chiqib, tadqiqotchi ta’riflarning qaysi birini qo‘llashni belgilab olishi zarur: nazariy tahlil uchun kengroq yondashuv maqsadga muvofiq bo‘lsa, amaliy hisob-kitoblar va miqdoriy tadqiqotlar uchun torroq, aniq chegaralangan yondashuv afzalroqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, tibbiy turizm murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni faqat bitta yondashuv asosida ta’riflash qiyin. Iqtisodiy, turizmga oid, huquqiy va madaniy yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi. Tibbiy turizmni kompleks hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘lib, u nafaqat chegaradan tashqari tibbiy xizmatlardan foydalanishni, balki iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-madaniy almashinuv, texnologik yangiliklar va davlat siyosati kabi omillarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, tibbiy xizmatlar narxlaridagi keskin farqlar tibbiy turizmning asosiy drayverlaridan biridir. AQShda yurak bypass operatsiyasi o‘rtacha 120 ming AQSh dollarini tashkil etsa, Hindiston va Tailandda 10-15 ming dollar atrofida bajarilishi mumkin. Bu farq 8-10 baravar bo‘lib, bemorlarni arzonroq mamlakatlardan xizmat izlashga undaydi.

Uchinchidan, mintaqaviy yondashuvlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud: AQSh iqtisodiy, Yevropa siyosiy-huquqiy, Osiyo esa madaniy-texnologik-turistik yondashuvga tayangan holda tibbiy turizmni izohlaydi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ushbu farqlarni belgilaydi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston uchun tibbiy turizmni rivojlantirishda Osiyo modelini qo‘llash, an’anaviy va zamonaviy tibbiyotni integratsiya qilish (Sharq tabobati, Ayurveda elementlari), xalqaro akkreditatsiyani kengaytirish va “Avitsenna” brendini targ’ib etish strategik ahamiyat kasb etadi. Tibbiy turizm klasterlarini shakllantirish va diagnostika xizmatlarini tashkil etish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, keyingi tadqiqotlarda O‘zbekistondagi tibbiy turizm klasterlarining samaradorligini empirik o‘rganish, xorijiy bemorlarning mamlakatimizga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va mintaqaviy raqobatbardoshlikni baholash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, “Avitsenna” brendi ostida milliy imijni targ’ib etish strategiyasining samaradorligini o‘rganish ham dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yil yanvar-iyun oylaridagi turizm statistikasi. – Toshkent, 2025. – URL: https://stat.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-Z35-sonli "Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PQ-4055-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari milliy bazasi.
4. Bookman, M. Z., Bookman, K. R. Medical Tourism in Developing Countries. – New York: Palgrave Macmillan, 2007. – 246 p.
5. Connell, J. Medical tourism: Sea, sun, sand and... surgery // Tourism Management. – 2006. – Vol. 27, No. 6. – P. 1093–1100. – DOI: 10.1016/j.tourman.2005.11.005

(cc) BY

6. Lunt, N., Carrera, P. Medical tourism: Assessing the evidence on treatment abroad // Maturitas. – 2010. – Vol. 66, No. 1. – P. 27–32. – DOI: 10.1016/j.maturitas.2010.01.017
7. Johnston, R., Crooks, V., Snyder, J., Kingsbury, P. What is known about the effects of medical tourism in destination and departure countries? A scoping review // International Journal for Equity in Health. – 2010. – Vol. 9, No. 1. – P. 24. – DOI: 10.1186/1475-9276-9-24
8. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Medical Tourism: Getting Medical Care in Another Country. – Atlanta: CDC, 2024. – URL: https://www.cdc.gov/features/medicaltourism
9. Dalen, J. E., Alpert, J. S. Medical tourists: incoming and outgoing // The American Journal of Medicine. – 2019. – Vol. 132, No. 1. – P. 9–10. – DOI: 10.1016/j.amjmed.2018.06.022
10. American Medical Association (AMA). Medical Tourism Guidelines. – Chicago: AMA, 2023. – URL: https://www.ama-assn.org
11. Dingel, J. I., Gottlieb, J. D., Lozinski, M., Mourot, P. Market Access and Healthcare Spending: Evidence from Medical Tourism // NBER Working Paper. – 2023. – No. 31417. – DOI: 10.3386/w31417
12. GoodRx Health. Medical Procedure Cost Comparison. – 2024. – URL: https://www.goodrx.com; Bookimed. Medical Tourism Prices Worldwide. – 2024. – URL: https://www.bookimed.com; World Population Review. Medical Tourism Statistics. – 2024. – URL: https://worldpopulationreview.com
13. Luo, Q., Zheng, C., He, Y. Wellness Tourism from an Ecosystem Perspective: A New Framework // Tourism Review. – 2022. – Vol. 77, No. 4. – P. 1088–1104. – DOI: 10.1108/TR-06-2021-0298
14. Sultana, S., Haque, A., Momen, A., Yasmin, F. Medical tourism in India: A review // Journal of Health Management. – 2014. – Vol. 16, No. 3. – P. 383–398. – DOI: 10.1177/0972063414539611
15. Ahmed, S., Al Amiri, N., Khan, S. Medical tourism in the United Arab Emirates: A review // International Journal of Healthcare Management. – 2022. – Vol. 15, No. 2. – P. 156–166. – DOI: 10.1080/20479700.2020.1867565
16. Kurtulmuş, S., Öztürk, A. Medical Tourism and the Turkish Healthcare Sector // Procedia Economics and Finance. – 2015. – Vol. 23. – P. 1232–1238. – DOI: 10.1016/S2212-5671(15)00509-6
17. Kim, S., Arcodia, C., Kim, I. Critical success factors of medical tourism: The case of South Korea // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2019. – Vol. 16, No. 24. – P. 4964. – DOI: 10.3390/ijerph16244964
18. Rustamov, U., Jumabayev, T. Janubiy O'zbekistonning tibbiy turistik imkoniyatlari // Geografiya va turizm. – 2020. – № 3. – B. 45–52.

(cc) BY